



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№2(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 156 sahifa,
2-fevral, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Kasbiy mahorat va tajribalarni rivojlantirishning mazmuni, shakl va usullari	22
<i>Yo'ldasheva Feruzaxon Shavkatbekovna</i>	
O'zbek tili darslarida 5E modelini qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish: Chimboy tumani 36-sonli ixtisoslashtirilgan maktab misolida	26
<i>Kojamuratova Ulbosin Punkitbaevna</i>	
Shaxs ijtimoiy faolligi: tushuncha va tahlil	29
<i>Baxriyeva Nargiza Axmadovna</i>	
Fiziognomika va psixologik yondashuvlar asosida portret qalamtasviri ta'limini takomillashtirish	33
<i>Babadjanov Axmadjan Xudayberdiyevich</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish	37
<i>Nusharov Bobir Bolbekovich</i>	
Личностные характеристики как ассимиляция системы отношений младших школьников и предмет воспитательного воздействия учителя	41
<i>Олимова Азиза Кахрамоновна</i>	
"Vitagen ta'lim texnologiyalari" asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda perseptiv qobiliyatni rivojlantirishga o'rgatishning didaktik imkoniyatlari	47
<i>Tursunboyeva Kamola Iloxmon qizi</i>	
Ekologik ta'lim va tarbiya asosida talabalarda ekoturistik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari	50
<i>Kamolov Baxtiyor Xasanboyevich</i>	
Individual ta'lim trayektoriyasi: maktabgacha yoshdagi bolalarda ekspressiv nutq buzilishlarining o'ziga xos xususiyatlari	54
<i>Fayziyeva Nozima Oybek qizi</i>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalardan foydalanish samaradorligi	59
<i>Ibragimova Nozima Ulug'bekovna, Pardayeva Hosila Qudratulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tarbiyachining kreativ roli	64
<i>Botirova Lobar Kamolovna</i>	
O'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish	69
<i>Kaipova Tazagul, Kaipova Elmira</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini zamonaviy kasb-hunarlariga qiziqitirishda integrativ usullardan foydalanish	73
<i>Ergasheva Nigora Erkinovna</i>	
Proposals for the Development of Education in Teaching Musical-Historical and Theoretical Subjects	76
<i>Sobirova Gulkhayo Aktamjonovna</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida talabalarda mediakompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari	81
<i>Rustemov Abseit Trijan o'g'li</i>	
Hamkorlik ko'nikmalarini takomillashtirishga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil etish mazmuni	85
<i>Baxramova O'ramol Uralovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda nazariy asoslanish mohiyati	88
<i>Boxodirova Muxlisa Xoljigitovna</i>	
Zoologiya fanini o'qitish jarayonida talabalarning ilmiy-tadqiqot faolligini rivojlantirish mexanizmlari	92
<i>Dushekeeva Nasiba Rustembaevna, Arepbaev Islambek Muratbaevich</i>	
Ingliz tilini o'rganishda zamonaviy texnologiyalarning roli	96
<i>Ergasheva Mehriyona</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining tasviriy ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari	100
<i>Jummayeva Sayyora Shokir qizi</i>	



The Role of Digital Technologies and Virtual Reality in Modern English Teaching Methodologies	104
<i>Seilkhanova Rita Nurniyazovna, Kalbaeva Mexriban Elbrus qizi</i>	
Sog'lom separatsiya orqali yoshlar sog'lig'ini mustahkamlash: tibbiy-psixologik yondashuvning empirik tahlili	109
<i>Mavlyanova Surayo Sultanaliyevna</i>	
Badiiy-tarixiy meros asosida pedagog shaxsini tarbiyalash: nazariya va amaliyot uyg'unligi	112
<i>Qodirova Mavluda Maxodir qizi</i>	
Gamified Programming Platforms: Analysis and Recommendations	116
<i>Ra'nokhon Ne'matjon kizi Rakhimova</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida giperaktiv bolalar bilan ishlashning ilmiy-nazariy asoslari	123
<i>Raimqulova Sojida Abdusaid qizi</i>	
Qandli diabet bilan og'rikan bemorlarga pedagogik yordam ko'rsatish tizimi.....	126
<i>Shermatova Yakut Sabirovna</i>	
O'smirlar o'rtasida kiberbulling	129
<i>Tashbekova Aziza Mirsuxbatovna</i>	
Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun tyutorlik yordamini tashkil etish	132
<i>Tolipova Pokiza Xasan qizi, Isamuxamedova Dildora Raxmatilayevna</i>	
Zamonaviy maktablarda xavfsizlik madaniyatining roli.....	135
<i>Turdiyeva Zilola Jalilovna</i>	
Global akademik reyting va raqobat muhitida xalqaro olimpiadalarning o'rni	138
<i>Xalikova Umida Mirovna</i>	
Tarbiyachining bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish jarayonidagi o'rni	143
<i>Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna, Rahimova Umida Abdurasul qizi</i>	
Biologiya darslarida TIMSS topshiriqlarini integratsiyalash.....	148
<i>Zayniyev Suxrobjon Islombek o'g'li, Komiljonova Muslima Shuxrat qizi</i>	
О трансверсальных компетенции воспитателя дошкольного образования.....	153
<i>Садыкова Шоиста Акбаровна, Назарматова Дилшода Умаралиевна</i>	

O'ZBEK TILI DARSLARIDA 5E MODELINI QO'LLASH ORQALI TA'LIM SIFATINI OSHIRISH: CHIMBOY TUMANI 36-SONLI IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB MISOLIDA

Kojamuratova Ulbosin Punkitbaevna

Chimboy tumani 36-sonli ayrim fanlar chuqur o'qitiladigan
sinflari bor umumiy o'rta ta'lim maktabi
o'zbek tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tili darslarida 5E (Engage, Explore, Explain, Elaborate, Evaluate) modelini qo'llashning pedagogik va metodik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot Chimboy tumani 36-sonli ayrim fanlar chuqur o'qitiladigan maktabining yuqori sinf o'quvchilari misolida olib borildi. Maqolada konstruktivizm nazariyasiga asoslangan mazkur modelning o'quvchilar motivatsiyasini oshirish hamda ularning lisoniy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 5E modeli an'anaviy dars o'tish usullariga nisbatan o'quvchilarning tanqidiy fikrlash darajasini va mavzuni o'zlashtirish ko'rsatkichlarini sezilarli darajada oshiradi.

Kalit so'zlar: 5E modeli, o'zbek tili, konstruktivizm, Chimboy tumani, ixtisoslashtirilgan maktab, eMaktab, lisoniy kompetensiya, IMRAD.

Abstract: This article analyzes the pedagogical and methodological potential of applying the 5E (Engage, Explore, Explain, Elaborate, Evaluate) model in Uzbek language lessons. The study was conducted using the example of senior students at Specialized School No. 36 in the Chimboy district, where certain subjects are taught in depth. The paper provides a scientific justification of the effectiveness of this constructivism-based model in enhancing students' learning motivation and developing their linguistic competencies. The findings indicate that, compared to traditional teaching methods, the 5E model significantly improves students' critical thinking skills and increases learning achievement outcomes.

Key words: 5E model, Uzbek language, constructivism, Chimboy district, specialized school, eMaktab, linguistic competence, IMRAD.

Аннотация: В данной статье анализируются педагогические и методические возможности применения модели 5E (Engage, Explore, Explain, Elaborate, Evaluate) на уроках узбекского языка. Исследование проводилось на примере учащихся старших классов специализированной школы № 36 Чимбайского района, в которой углублённо преподаются отдельные учебные предметы. В статье научно обоснована эффективность данной модели, основанной на теории конструктивизма, в повышении учебной мотивации учащихся и развитии их языковых компетенций. Результаты исследования показывают, что модель 5E по сравнению с традиционными методами обучения существенно повышает уровень критического мышления учащихся и показатели усвоения учебного материала.

Ключевые слова: модель 5E, узбекский язык, конструктивизм, Чимбайский район, специализированная школа, eMaktab, языковая компетенция, IMRAD.

KIRISH

Bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimida "Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi" degan ezgu g'oya asosida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlarning markazida o'quvchini tayyor bilimni qabul qiluvchi passiv subyektdan bilimni mustaqil yaratuvchi faol ishtirokchiga aylantirish vazifasi turadi. Ayniqsa, o'zbek tili darslarida yuqori sinf o'quvchilarining nutqiy va lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarurati tobora ortib bormoqda.

5E modeli (Jalb qilish, Tadqiq etish, Tushuntirish, Kengaytirish, Baholash) konstruktivizm nazariyasiga asoslangan bo'lib, u o'quvchilarga bilimlarni avvalgi tajribalari asosida mustaqil ravishda shakllantirish imkonini beradi. Mazkur model dastlab xalqaro miqyosda STEM fanlari uchun ishlab chiqilgan bo'lsa-da, lisoniy ta'lim jarayonida ham yuqori samaradorlik ko'rsatayotgani ilmiy-amaliy tadqiqotlar orqali tasdiqlanmoqda. Ushbu maqolada Chimboy tumani 36-sonli maktabning ixtisoslashtirilgan sinflari misolida yuqori sinf o'quvchilariga o'zbek tili fanini o'qitishda 5E modelini qo'llashning metodik asoslari yoritib beriladi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbek tili ta'limida kompetensiyaviy yondashuvni shakllantirish masalalari milliy metodika fanida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. B. Mengliyev tomonidan yaratilgan 10-sinf ona tili darsligi 2022-yilda nashr etilib, unda o'quvchilarning nutqiy, lingvistik va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyatga asoslangan topshiriqlar tizimi taklif etilgan. Ushbu yondashuv o'quvchini bilimni tayyor holatda qabul qiluvchi emas, balki uni mustaqil o'zlashtiruvchi sub'ekt sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

O'zbek tili o'qitish metodikasining nazariy asoslari B. To'xliyev, M. Shamsiyeva va T. Ziyodovalarning 2006-yilda chop etilgan tadqiqotlarida keng yoritilgan. Mualliflar ona tili ta'limida interfaol metodlardan foydalanish, matn bilan ishlash va tahliliy fikrlashni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratadilar. Ushbu qarashlar konstruktiv yondashuvga asoslangan 5E modelining lisoniy ta'limda qo'llanishi uchun muhim nazariy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

5E modeli ta'lim jarayonida faol o'rganishni tashkil etishning samarali modeli sifatida R. W. Bybee tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u 2015-yilda NSTA Press nashriyotida ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Mazkur model o'quvchilarning bilimni bosqichma-bosqich egallashini, mustaqil tadqiq qilishini va bilimlarni yangi vaziyatlarda qo'llashini ta'minlaydi. So'nggi yillarda ushbu model nafaqat STEM fanlarida, balki til ta'limida ham yuqori samaradorlik ko'rsatayotgani ilmiy tadqiqotlar orqali isbotlanmoqda.

Milliy ta'lim tizimida ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish masalalari Q. Yo'ldoshev, R. G'. Hamdamova hamda M. E. Xolmatova tadqiqotlarida chuqur tahlil qilingan. Xususan, Hamdamova 2024-yilda raqamli ta'lim sharoitida kreativ faoliyatni rivojlantirish omillarini asoslab bergan bo'lsa, Xolmatova 2023-yilda 5E modelining ta'lim sifati va o'quvchi faolligini oshirishdagi rolini ilmiy jihatdan yoritib bergan. Ushbu tadqiqotlar 5E modelini o'zbek tili darslarida qo'llashning dolzarbligi va amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayoni Qoraqalpog'iston Respublikasi Chimboy tumanida joylashgan 36-sonli ayrim fanlar chuqur o'qitiladigan sinflari mavjud umumiy o'rta ta'lim maktabida amalga oshirildi. Mazkur ta'lim muassasasi 2013-yilda tashkil etilgan bo'lib, unda 118 nafar pedagog xodim faoliyat yuritadi va 1186 nafar o'quvchi tahsil oladi. Maktabning yuqori sinflarida (10–11-sinflar) o'zbek tili darslarida 5E modelini qo'llash maqsadida bir qator metodik bosqichlar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida B. Mengliyev muallifligidagi 10-sinf ona tili darsligidan “Muhabbat o'zi nima?”, “Ekologiya va inson”, “Nutq uslublari” hamda “Orol fojiasi” mavzulari tanlab olindi. Dars jarayonlari eMaktab raqamli platformasi imkoniyatlaridan foydalangan holda tashkil etildi, bu esa o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish dinamikasini real vaqt rejimida kuzatish imkonini berdi.

Darslarning tashkil etilishi 5E zanjiri asosida olib borildi:

1. Jalb qilish bosqichida o'quvchilarga ochiq savollar berildi;
2. Tadqiq etish bosqichida o'quvchilar matn ustida mustaqil ishladilar;
3. Tushuntirish bosqichida o'z xulosalarini bayon etdilar;
4. Kengaytirish bosqichida olingan bilimlarni yangi vaziyatlarda, xususan argumentli esse yozishda qo'lladilar;
5. Baholash bosqichida esa eMaktab tizimi orqali o'z-o'zini baholash hamda o'qituvchi nazorati amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Chimboy tumani 36-sonli maktabning 10–11-sinflarida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari 5E modelining yuqori samaradorligini tasdiqladi. Statistik tahlillarga ko'ra, 5E modeli asosida dars o'tilgan sinflarda o'quvchilarning fan bo'yicha natijalari an'anaviy metodlarga nisbatan sezilarli darajada farq qildi.

Lisoniy ko'nikmalarning rivojlanishi bo'yicha olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning umumiy o'zlashtirish darajasi o'rtacha 29 foiz punktga oshgan. Hedges koeffitsiyenti bo'yicha hisoblanganda, fan natijalariga ta'sir kuchi $g=0.82$ ni tashkil etdi, bu esa metodning yuqori darajada samarali ekanligidan dalolat beradi.

Mavzular kesimida tahlil qilinganda, “Muhabbat o'zi nima?” mavzusini o'rganish jarayonida o'quvchilar “ishq”, “muhabbat” va “sevgi” tushunchalarining etimologik hamda uslubiy farqlarini mustaqil tadqiq qilish orqali o'zlashtirdilar. Natijada o'quvchilarning 95 foizi nutqiy uslublarni farqlash va ularni to'g'ri qo'llash ko'nikmasini namoyon etdi. Shuningdek, o'quvchilarning darsga bo'lgan motivatsiyasi 10 foizga oshgani va tanqidiy fikrlash qobiliyati $g=0.85$ ko'rsatkichigacha ko'tarilgani kuzatildi. eMaktab platformasi orqali olingan tahlillar



shuni ko'rsatdiki, 36-sonli maktab bitiruvchilarining o'zbek tili fanidan o'rtacha ballari tuman ko'rsatkichlaridan 12 foizga yuqori bo'ldi.

5E modelining Chimboy tumani 36-sonli maktab tajribasidagi muvaffaqiyati uning o'quvchiga yo'naltirilgan tabiati bilan izohlanadi. Jalb qilish (Engage) bosqichida o'qituvchi o'quvchilarning qiziqishini uyg'otish maqsadida muammoli vaziyat yaratadi. Jumladan, "Orol fojiasi" mavzusida darsni boshlash jarayonida mintaqaning ekologik holati haqidagi qisqa videorolik namoyish etilishi o'quvchilarda mavzuga nisbatan emotsional bog'liqlikni shakllantirdi.

Tadqiq etish (Explore) bosqichida o'quvchilar tayyor qoidalarni yodlashdan ko'ra, matnlarni tahlil qilish orqali murakkab gap turlarini yoki uslubiy shakllarni mustaqil aniqladilar. Ushbu jarayon o'quvchilarda "olim kabi fikrlash" hamda mantiqiy xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qildi.

Tushuntirish (Explain) bosqichida o'quvchilarning o'z tadqiqotlari natijalarini mustaqil bayon etishi, o'qituvchining esa faqat terminlarni aniqlashtirib berishi o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Kengaytirish (Elaborate) bosqichida esa 10-sinf darsligidagi "Ekologiya va inson" mavzusi asosida argumentli esse yozish topshirig'ining berilishi o'quvchilarning yozma nutqini yangi bosqichga olib chiqdi.

Garchi 5E modeli o'qituvchidan darsga tayyorgarlik ko'rishda ko'proq vaqt va resurs talab qilsa-da, eMaktab tizimidagi raqamli resurslar ushbu jarayonni sezilarli darajada yengillashtiradi. Chimboy tajribasi shuni ko'rsatdiki, ixtisoslashtirilgan sinflarda o'quvchilarning intellektual salohiyati yuqori bo'lgani sababli, 5E modelini hattoki 7E (Elicit va Extend bosqichlari qo'shilgan holda) modeligacha kengaytirish imkoniyati mavjud.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Chimboy tumani 36-sonli ixtisoslashtirilgan maktab tajribasi shuni ko'rsatdiki, 5E modeli o'zbek tili darslarida an'anaviy ma'ruza usulidan voz kechgan holda o'quvchining ichki salohiyatini yuzaga chiqarish uchun samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Ushbu model yuqori sinf o'quvchilarida nafaqat til qoidalarini bilish, balki tildan ijtimoiy va ilmiy maqsadlarda foydalanish, shuningdek o'z fikrini asosli tarzda himoya qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

1. Respublika miqyosidagi ixtisoslashtirilgan maktablarda o'zbek tili darslarini to'liq 5E modeli asosida loyihalashtirish.
2. eMaktab platformasida 5E modelining har bir bosqichi uchun mo'ljallangan raqamli o'quv materiallari omborini yaratish.
3. Ona tili va adabiyot fani o'qituvchilarining metodik mahoratini oshirish maqsadida 5E modelini amaliy qo'llashga yo'naltirilgan seminar-treninglar tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni: <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. Mengliyev B. Ona tili: 10-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 224 b.
3. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Adabiyot jamg'armasi, 2006.
4. Bybee R. W. The BSCS 5E Instructional Model: Creating Teachable Moments. – Arlington: NSTA Press, 2015.
5. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.
6. Hamdamova R. G'. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida kreativ faoliyatni rivojlantirish omillari // Raqamli ta'lim to'plami. – 2024. – 2-qism.
7. Xolmatova M. E. Boshlang'ich sinflarda ta'lim sifatini oshirishda 5E modelining o'rni // Oriental Art and Culture. – 2023.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.